

EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDIY IQTISODIYOTNI YAXSHILASHNING BOSQICHLARI VA MEXANIZMLARI

Majidova Mahliyo Shomilovna

QarDU Iqtisodiyot fakulteti

Turizm yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Email: mahliyomajidova45@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekoturizmni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni ayniqsa, chekka hududlardagi infratuzilmalar va sharoitlarni yaxshilashning asosiy tamoyillari va mexanizmlari keng yoritilgan. Hozirgi davrda turizm sohasi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda ayniqsa uning ekologiya va inson salomatligiga qaratilgan yo‘nalishi – ekoturizmga yanada katta e‘tibor qaratilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *ekoturizm, diversifikatsiya qilish, infratuzilma, yangi innovatsiyalar, biosfera, ekologik qonunchilik*

Kirish: Bugunki kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining tez rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanib, u nafaqat insonlar ehtiyojini qondirish uchun, balki millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, qadriyatlarga sodiqlik hamda hududiy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun ham ko‘prik vasifasini bajarib kelmoqda. Ayniqsa, ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda turizmning barqarorlikga yetaklovchi shakllarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatni kasb etmoqda. Ana shunday yo‘nalishlardan biri sifatida turizmning mana shu ekoturizm tarmog‘ini olishimiz mumkin, chunki u atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birgalikda iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi. Shuningdek hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda, mahalliy resurslardan samarali foydalanishda, yangi ish o‘rinlarini yaratishda va aholi daromatini oshirishda bu yo‘nalish ancha muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ekoturizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki tabiiy resurslarni asrab qolish, tabiiy barqarorlikni ta‘minlash va mahalliy aholi farovonligi oshishida ham muhim omil hisoblanadi. Maqolada ekoturizmni rivojlantirish bosqichlari bo‘lgan – foydali resurslarni aniqlash, kuchli infratuzilma shakllantirish, innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish, zamonaviy va klassik uyg‘unlikdagi marketing strategiyalarni ishlab chiqish va eng so‘ngida monitoring va baholash jarayonlari izchil tahlil qilingan. Shuningdek, hududiy iqtisodiyotga kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy mexanizmlar, jumladan, yangi ish o‘rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar sohasini kengaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish kabi jihatlarni ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Ekoturizmni rivojlantirish va uni yangicha innovatsiyalar bilan rag‘batlantirib borishni

samarali tashkil etish orqali har qanday hududning iqtisodiy o‘rishini taminlab beradi. Shuningdek xizmatlar sohasini modernizatsiya qilib borish bilan birgalikda, ularga milliy an‘analarni ham uyg‘unlashtirish bu sohaning ravnaq topishini yanada mustahkamlaydi. Kun kelib ekologik jihatlariga ega bo‘lgan hududimizda turistlarga ko‘rsatgan yangicha xizmatlarimiz orqali o‘z ustun jihatlarimizni yana ham boyitib borishimiz mumkin bo‘ladi.

Ekoturizm sohasini rivojlantirishning bir-nechta bosqichlari mavjud bo‘lib, ularga misol qilib, ba‘zilarini keltirib o‘tishimiz mumkin:

- Tabiiy jihatlariga ega va turistlarga xizmat ko‘rsata oladigan bir qancha resurslarni o‘rganish va ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish. Hududlarda mavjud tabiiy boyliklar, landshaftlar, biologik xilma-xilliklar, madaniy meros obyektlari o‘rganiladi va baholab boriladi.

- Yangicha infratuzilmani shakllantirish. Yo‘llar, transportlar, ekologik mehmonxonalar shuningdek, boshqa xizmat ko‘rsatish inshootlari barpo qilinadi.

- Boshqaruv va rejalashtirish tizimini innovatsion tartibda yaratish. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro hamkorliklar yo‘lga qo‘yiladi va ekologik standartlar joriy etiladi.

- Zamonaviy marketing va qulay targ‘ibot usullari. Hududlarning turistik brendlari shakllantiriladi va mijozlar sonini yanada kengaytirish uchun reklama va targ‘ibot ishlari amalga oshiriladi.

- Monitoring qilib boorish. Ekoturizm faoliyatining iqtisodiy va ekologik natijalari muntazam ravishta tahlil qilib boriladi va baholanadi. Bu yo‘l orqali yuqoridagi jihatlar uyg‘un holatda tahlil qilib boriladi va sifatlar nazorat qilinadi.

Asosiy qism: Ekoturizm bu zamonaviy turizmning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan faoliyat turidir. O‘zbekiston sharoitida ekoturizm ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki mamlakat hududida tog‘lar, cho‘l zonalari, milliy bog‘lar, biosfera hududlari va noyob tabiiy landshaftlarning hammasidan mavjud.

Ekoturizm hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda bir qancha jihatlar bilan ahamiyat kasb etadi. Eng birinchi navbatda mahalliy daromat manbalarini diversifikatsiya qiladi, ya‘ni bir hudud faqat bir soha bo‘yicha emas, boshqa sohalar bo‘yicha ham daromat qila oladi, natijada hudud iqtisodiyotida yangi sohalar, yangicha xizmat turlari paydo bo‘ladi. Bu esa mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratadi va ularni bandlik bilan ta‘minlaydi, hamda ish haqqining oshirilishiga xizmat qiladi. Ko‘pchilik odamlarning ish toppish uchun shaharga ko‘chib ketishlarining va qishloq aholisi keskin kamayib ketishining oldini oladi. Oqibatda chekka hududlardagi infratuzilmaning ham rivojlanish darajasi tezlashib, qishloq hududlari va shaharlar o‘rtasidagi iqtisodiy barqarorlik tenglashadi. Davlat tomonidan kichik biznes va

oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham hududlar istiqboli va aholi farovonligi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o‘zining investitsion jozibadorligiga ega hisoblanib, uni ochib berish malakali kadrlarni tayyorlash va marketologiyani kuchaytirishga bog‘liq. Aynan mamlakatimizda bunday targ‘ibotlarni amalga oshirish orqali, yaqin kelajakda o‘zimiz hohlaydigan eko zamonaviy hayotga ega bo‘lishimiz mumkin.

O‘zbekistonlik olimlardan Egamberdiyeva L. Sh. o‘zining “Ekoturizm” nomli o‘quv qo‘llanmasida ekoturizmni barqaror rivojlanishning muhim elementlaridan biri sifatida ko‘rsatadi va uni iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida tahlil qilib, o‘rganadi. Ekoturizmni hududiy iqtisodiyotga integratsiya qilish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar tizimli yondashuv asosida quyidagicha shakllanadi:

1. Tabiiy resurslarni baholash bosqichi:

Bu bosqichda hududlarning ekoturistik salohiyati aniqlanadi ya’ni, tabiiy landshaftlar inventarizatsiya qilinadi, bioxilma-xilliklar o‘rganib boriladi, ekologik xavf darajasi baholanadi va eng so‘ngida turistik resurslarning xaritasi tuziladi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, Zomin milliy tabiat bog‘i yoki Surxondaryo tog‘ tizmalari ekoturizm uchun yuqori salohiyatga ega hududlar hisoblanadi.

2. Infratuzilmani shakllantirish bosqichi

Ekoturizm rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biri bu infratuzilmadir. Bularga yo‘llar va transport tizimlarining yaxshilanishi, yangicha brenddagi ekologik mehmonxonalar barpo qilinishi, turli-xil axborot markazlari tashkil etilishi va xavfsizlik tizimining yo‘lga qo‘yilishi misol bo‘ladi. Turli tadqiqotlar natijasida infratuzilma ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanligi ta’kidlangan.

3. Investitsiya va moliyalashtirish bosqichi

Ekoturizm loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar zarur. Shu sababli ham bu sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng qo‘llaniladi. Shuningdek, bir qator xalqaro grantlar jalb qilinadi, mahalliy investorlar rag‘batlantiriladi va “yashil iqtisodiyot” fondlari ishga tushiriladi. Tadqiqotlarida ekoturizmni moliyalashtirishda innovatsion iqtisodiy mexanizmlar muhim rol o‘ynashi ta’kidlab o‘tiladi.

4. Mahalliy aholining ishtirokini ta’minlash bosqichi

Ekoturizm muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri – mahalliy aholining faol ishtirokidir. Bu bosqichda mahalliy aholi vakillar uchun yangi ish o‘rinlari yaratiladi, hunarmandchilik sohasi va xizmat ko‘rsatish rivojlantiriladi, bir qator oilaviy va mehmon uylari tashkil etiladi, eng asosiysi, ommaga ekologik ta’lim berib boriladi. Bu jarayon o‘z navbatida hududiy iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi.

5. Marketing va brending bosqichi

Ekoturistik hududlarni rivojlantirish uchun avvalo, uni xalqaro va mahalliy darajada targ‘ib qilish zarur hisoblanadi. Bunda har bir hudud o‘zining turistik brendini yaratishi, hozirgi davr zamon talabi bo‘lgan raqamli marketingdan o‘zi uchun qulay tarzda foydalanishi, ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot ishlarini olib borishi, xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etishi zarur deb topiladi. Bu bosqich hududning turistik oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Ekoturizmni hududiy iqtisodiyotga integratsiya qilishda ba‘zi bir mexanizmlar katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bular hukumat tomonidan xususiy sektorlarga soliq imtiyozlari va bir qator yengilliklar berish, subsidiya va grantlar ajratish, investitsiya kafolatlarini yaratish, shuningdek ekologik to‘lov tizimlarini yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Bu mexanizmlar biznes subyektlarini ekoturizm sohasiga jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Ekologik qonunchilikni takomillashtirish ham muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Chunki jamiyatdagi ko‘pchilik odamlar ba‘zi hollarda ekologiyaga zarar yetkazishi juda ko‘p kuzatilmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra har yili dunyo bo‘yicha taxminan 10 mln gektar o‘rmon hududlaridagi daraxtlar insoniyat tomonidan shavqatsiz tarzda kesilmoqda. Daraxt va o‘simliklarning kamayishi esa aholiga zarar yetkazuvchi omillardan biri, chunki o‘simliklar inson nafas olishi uchun muhim bo‘lgan elementlardan biri kislarodni tabiatga inom etadi. “World health organization” tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra dunyo aholisining qariyb 99% qismi o‘zi bilmagan holda iflos havodan nafas oladi, bu esa inson umrini 2 yilga qisqarishiga olib kelar ekan. Ma‘lumotlarga ko‘ra har yili 7 mln odam havo ifloslanishi sababli vafot etadi va bu faqatgina ekologik muammo emas balki, global darajadagi sog‘liq inqirozi ekanligi ko‘rsatiladi. Eng yuqori ifloslanish Osiyo va Afrika mintaqalarida kuzatilmoqda va buning sababi ham ba‘zi hududlar infratuzilmasining yaxshi tashkil topmagani bo‘lsa, asosiy sabablari bu transportlar, sanoat chiqindilari, xo‘jalik faoliyatlarda ko‘mir va yoqilg‘idan ko‘p miqdorda foydalanish hisoblab kelinmoqda. Ifloslanish darajasining yildan-yilga yomonlashib borishi tufayli ko‘plab tabiiy ofatlar sodir bo‘lmoqda, zilzilalar, suv toshqinlari, chang bo‘ronlari, ozon qatlaminin yemirilishi kabi holatlarning kuzatilayotgani bunga yorqin misol bo‘la oladi. Yurtimiz hududida bunday vaziyatlar ko‘zatilishini oldini olish maqsadida hukumatimiz tomonidan atrof muhit muhofazasiga doir bo‘lgan bir qancha tashabbuslar amalga oshirildi. Xususan, 2023-yil 31-mayda qabul qilingan PQ-171-sonli qaror O‘zbekiston Respublikasida ekologiya sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qaror orqali ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarga tizimli yondashuvni shakllantirish maqsad qilib qo‘yilgan. Mazkur qarorga muvofiq, ekologiya sohasida yagona boshqaruv tizimini yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Xususan, turli tashkilot va muassasalar yagona tizimga birlashtirilib, ularning faoliyati markazlashgan holda boshqarilishi yo‘lga

qo‘yildi. Jumladan, milliy tabiat bog‘lari, hayvonot bog‘lari va ekologik tashkilotlar yagona boshqaruv tizimiga o‘tkazildi. Qaror doirasida ekologiya sohasida institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti” tashkil etilib, tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish tizimi takomillashtirildi. Shuningdek, ekologik moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida maxsus jamg‘armalar tashkil etildi. Jumladan, Ekologiya jamg‘armasi orqali atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish, o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash imkoniyati yaratildi. Qarorda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish ham alohida e‘tibor qaratilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib chiqish xizmatlarini rivojlantirish, ushbu sohada shartnomaviy munosabatlarni kuchaytirish hamda qarzdorlikni kamaytirish bo‘yicha aniq choralari belgilangan. Bundan tashqari, qaror doirasida ekologik monitoring, ilmiy tadqiqotlar va biologik resurslarni hisobga olish tizimini rivojlantirish choralari ham nazarda tutilgan. Qo‘riqlanadigan hududlarda ilmiy bo‘limlar tashkil etish orqali o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganish va nazorat qilish imkoniyatlari kengaytirildi. Umuman olganda, PQ-171-sonli qaror ekologiya sohasini modernizatsiya qilish, boshqaruvni markazlashtirish va ekologik muammolarni kompleks hal etishga xizmat qiluvchi muhim normativ-huquqiy asos bo‘lib, mamlakatda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda milliy parklar boshqaruv tizimini takomillashtirish, turizmni litsenziyalash tizimini yo‘lga qo‘yish va bir qator ekologik standartlar joriy etish muhim hisoblanadi.

Xulosa: Ekoturizmni rivojlantirish hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash vositasi hamdir. Hududiy iqtisodiyotni yaxshilash jarayonida ekoturizmni rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim: resurslarni baholash, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy aholini jalb etish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish. Shuningdek, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va innovatsion mexanizmlarning uyg‘unligi ekoturizmning samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston sharoitida ekoturizmni rivojlantirish orqali hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish mumkin. Umuman olganda, ekoturizmni rivojlantirish hududiy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta‘minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva L.Sh. Ekoturizm (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2021.
<https://library.tdau.uz/uz/books/644>
2. Akhmedkhodjaev R. Ekoturizmni rivojlantirishning ilmiy asoslari.
<https://sci-p.uz/index.php/aapt/article/view/2622>
3. Tursunov B.N. Ekoturizm va barqaror rivojlanish tamoyillari.
<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/4651>
4. Yashil iqtisodiyot va ekoturizm bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.
<https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/6245>
5. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari.
<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5133>
6. [https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ambient-\(outdoor\)-air-quality-and-health](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ambient-(outdoor)-air-quality-and-health)
7. <https://lex.uz/docs/6479134>